



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA OCHIQ BANKING VA FINTECH INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

OPEN BANKING AND FINTECH INTEGRATION IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: CHALLENGES AND DEVELOPMENT DIRECTIONS

¹Xudayarov Oybek
Odilovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti dotsenti, PhD.

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarida ochiq banking (Open Banking) tamoyillarini joriy etish va fintech kompaniyalar bilan integratsiya masalalari tahlil qilingan. Jahon amaliyotida ochiq banking ekotizimlarining rivojlanishi, API integratsiyasining iqtisodiy samarasi, O'zbekiston bank tizimida mavjud imkoniyatlar va to'siqlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida milliy bank tizimida ochiq banking arxitekturasini joriy etish hamda bank-fintech hamkorligini kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.

Eng. - This article analyzes the issues of implementing Open Banking principles and integrating fintech companies into commercial banks of Uzbekistan. The development of Open Banking ecosystems in global practice, the economic impact of API integration, as well as existing opportunities and barriers within Uzbekistan's banking system are examined. Based on the research findings, practical recommendations are presented for introducing an Open Banking architecture into the national banking system and strengthening bank-fintech collaboration.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *ochiq banking, Open Banking, fintech, API integratsiya, BaaS, raqamli ekotizim, bank-fintech hamkorligi, O'zbekiston bank tizimi, moliyaviy inkluzivlik.*

❖ *open banking, Open Banking, fintech, API integration, BaaS, digital ecosystem, bank-fintech collaboration, Uzbekistan banking system, financial inclusion.*

Kirish.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi moliyaviy xizmatlar bozorida fundamental o'zgarishlarga olib kelmoqda. An'anaviy bank xizmatlarining chegaralari tobora xiralashib, fintech kompaniyalar, to'lov agregatorlari va raqamli platformalar tijorat banklarining an'anaviy funksiyalarini egallab bormoqda. Ushbu sharoitda "ochiq banking" (Open Banking) konsepsiyasi global miqyosda moliyaviy xizmatlarning yangi arxitekturasini

belgilab bermoqda: banklar o'z ma'lumotlari va xizmatlarini standartlashtirilgan API orqali uchinchi tomon ishtirokchilariga ochib, mijozlar uchun yanada boyroq xizmat ekotizimini shakllantirmoqda.

O'zbekistonda ochiq banking yo'nalishidagi ilk qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, rivojlangan moliya bozorlariga nisbatan sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, rivojlangan mamlakatlarda bank ekotizimlarining

platformalashuv darajasi o'rtacha 90 foizni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich hozircha 40 foiz atrofida. API ochiqqligi bo'yicha rivojlangan bozorlarda 85 foiz, O'zbekistonda esa 35 foiz darajasi qayd etilgan. Ushbu tafovutni bartaraf etish milliy bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi O'zbekiston tijorat banklarida ochiq banking arxitekturasini joriy etish va bank-fintech integratsiyasini rivojlantirishning nazariy asoslarini shakllantirish, joriy holat va muammolarni tahlil etish hamda amaliy yo'nalishlarni belgilashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ochiq banking kontseptsiasining nazariy poydevori Yevropa Ittifoqining PSD2 (Payment Services Directive 2) direktivi bilan mustahkamlangan bo'lib, u banklarni mijozlar roziligi asosida uchinchi tomon provayderlariga ma'lumot ochishga majburlaydigan birinchi yirik reguliyator hujjat hisoblanadi [1]. Ushbu reguliyator impuls global miqyosda ochiq banking harakatini tezlashtirib, bugungi kunda Buyuk Britaniya, Avstraliya, Braziliya, Singapur va boshqa 50 dan ortiq mamlakatda faol amalga oshirilmoqda.

Cociug va Postolache o'zlarining tadqiqotida raqamli platformalar va ochiq bank tizimlarining Industry 4.0 davridagi rivojlanish trendlarini yoritib, Banking-as-a-Service (BaaS) modelining tijorat banklari daromadlilikiga ijobiy ta'sirini isbotlaydi [2]. Farnè va Vouldis Yevro hudud banklarini klaster tahlili orqali guruhlagan holda, ochiq banking joriy etgan banklar mijozlar bazasini o'rtacha 23 foiz kengaytirganini ko'rsatadi [3].

Zetsche va boshqalar fintech, techfin va regtech tushunchalariga tizimli ta'rif berib, moliya sektorida institutsional xavf-xatarlar va huquqiy bo'shliqlarni ko'rsatib o'tadi. Olimlarning fikricha, bank sohasidagi raqamli transformatsiya — bu vertikal

integratsiyalashgan modeldan API va ekotizimlarga asoslangan desentralizatsiyalashgan platformalarga o'tish jarayonida [4]. Skinner esa banklarning faqat texnologik emas, balki gumanitar va ijtimoiy transformatsiyasiga urg'u berib, raqamli ishonch platformalarining jamiyatdagi ahamiyatini ta'kidlaydi [5].

Aliyev X.R. O'zbekiston bank tizimida ekotizimlarni rivojlantirishda ochiq API integratsiyalarining cheklanganligi va platformaviy arxitekturaning to'liq rivojlanmaganligini asosiy to'siq sifatida aniqlaydi. Uning fikricha, bank ekotizimining samaradorligi faqat mobil ilova yoki masofaviy xizmatlar rivojiga emas, balki banklar va tashqi hamkorlar o'rtasidagi ochiq integratsiya darajasiga, reguliyativ muhit sifatiga va korporativ boshqaruv mexanizmlariga bog'liq [6]. Shoymardonov esa bank va fintech kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlik modellarini tahlil qilib, raqamli platformalar orqali kreditlash, to'lovlar, elektron savdo va sug'urtani bir tizimga jamlash bankning operatsion samaradorligini sezilarli oshirishini isbotlaydi [7].

Omarini bank biznes modellari va EU reguliyatsiyasi o'rtasidagi muvozanatni tahlil qilib, innovatsiyalarni joriy etishda huquqiy moslashuv zarurligini ko'rsatadi [8]. Stepanova texnologik innovatsiyalar bank modelining boshqaruv va strategik qismlarini qanday o'zgartirishini tahlil qilar ekan, fintech integratsiyasiz raqobatbardosh bank modelini saqlab qolish imkonsizligini ta'kidlaydi [9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi: institutsional tahlil — O'zbekistonda ochiq banking reguliyativ bazasini baholashda; qiyosiy tahlil — O'zbekiston va rivojlangan mamlakatlar bank ekotizimlarini solishtirish uchun; GAP-tahlil — mavjud holat va maqsadli ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash uchun; SWOT-tahlil — bank-fintech hamkorligidagi

imkoniyatlar va to'siqlarni baholash uchun; ekspert baholash metodi — O'zbekiston fintech sohasidagi mutaxassislar fikrlari asosida.

Empirik baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari va statistik ma'lumotlari, European Banking Authority (EBA) ochiq banking standartlari, Jahon banki moliyaviy inkluzivlik indeksleri, PwC va McKinsey analitik hisobotlari, shuningdek O'zbekistonning 15 ta yirik tijorat banki hamda 8 ta fintech kompaniyasi faoliyatiga oid ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqot davri — 2021–2025-yillar.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ochiq banking arxitekturasining tarkibiy modeli. Ochiq banking ekotizimi uch asosiy qatnashchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimiga asoslanadi: ma'lumot egasi bank (Account Servicing Payment Service Provider — ASPSP), ma'lumotga kirish huquqiga ega

uchinchi tomon (Third Party Provider — TPP) va ma'lumot subyekti bo'lgan mijoz. Bu uchlik o'rtasida standartlashtirilgan API orqali ma'lumotlar almashinuvi amalga oshiriladi.

Banking-as-a-Service (BaaS) modeli ushbu arxitekturaning eng rivojlangan shakli bo'lib, unda bank o'z litsenziyasi va infratuzilmasini API orqali fintech kompaniyalar va boshqa xizmat ko'rsatuvchilarga taqdim etadi. Natijada fintech kompaniya bank litsenziyasini olmasdan ham to'lov, kredit va depozit xizmatlarini ko'rsata oladi. Bu model hozirda Buyuk Britaniya (Monzo, Starling), Germaniya (Solarisbank), AQSh (Bancorp, Cross River Bank) va Singapurda (DBS, UOB) muvaffaqiyatli ishlayapti.

O'zbekistonda bank-fintech hamkorligining rivojlanish holati 1-jadvalda ko'rsatilgan asosiy ko'rsatkichlar orqali baholanishi mumkin:

1-jadval

O'zbekiston bank-fintech ekotizimining holati*

Ko'rsatkich	Rivojlangan mamlakatlarda	O'zbekiston (2025)	Farq
Platformalashuv darajasi	90%	40%	50 f.p.
API ochiqligi	85%	35%	50 f.p.
Fintech kompaniyalar soni	500+ (Buyuk Britaniya)	80	6,25 marta
Raqamli to'lov ulushi (GDP)	40–60%	18%	22–42 f.p.
BaaS modeli qabul qilgan banklar	60–70%	10%	50–60 f.p.

*Manba: O'zbekiston va rivojlangan bozorlardagi bank-fintech ekotizimi ko'rsatkichlari qiyosi (muallif hisob-kitoblari asosida)

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank-fintech ekotizimida rivojlanish uchun katta salohiyat mavjud, biroq ko'rsatkichlar bo'yicha tafovut jiddiy bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistondagi ijobiy o'zgarishlarni ham alohida ta'kidlash zarur: Markaziy bankning 2026-yil №3759-son nizomi masofaviy moliyaviy xizmatlar sohasida muhim regulyativ asos yaratgan; Uzun Market va TBC Bank kabi platformalar bank va ecommerce integratsiyasining muvaffaqiyatli namunasini ko'rsatmoqda; HUMO va UzCard

to'lov tizimlari API orqali uchinchi tomon integratsiyasini bosqichma-bosqich ochmoqda.

Bank-fintech hamkorligi modellari. Jahon amaliyotida bank va fintech kompaniyalar o'rtasida to'rtta asosiy hamkorlik modeli kuzatilmoqda. Birinchi model — raqobat modeli: fintech kompaniya bankdan mustaqil ravishda mijozlarga muqobil xizmat ko'rsatadi (masalan, Revolut, N26). Bu model O'zbekistonda hozircha cheklangan, chunki fintech kompaniyalarning huquqiy maqomi to'liq belgilanmagan.

Ikkinchi model – hamkorlik modeli: bank va fintech texnologiya yoki xizmat almashadi. Masalan, bank fintech kompaniyaga mijozlar bazasini ochib bersa, fintech kompaniya bankka kredit skoringi yoki fraud-detection yechimlarini taqdim etadi. O'zbekistonda bu model Kapitalbank-Paynet, Anorbank-Click kabi hamkorliklar misolida kuzatilmoqda.

Uchinchi model – investitsiya modeli: bank fintech startapga investitsiya kiritadi yoki uni sotib oladi. To'rtinchi model – BaaS modeli: bank o'z API va litsenziyasini fintech kompaniyaga taqdim etadi. O'zbekistonda bu to'rtta modeldan birinchi ikkitasi nisbatan rivojlangan, oxirgi ikkitasi esa hali boshlang'ich bosqichda.

O'zbekistonda ochiq banking va bank-fintech integratsiyasini rivojlantirishda quyidagi to'siqlar aniqlandi. Huquqiy to'siqlar: fintech kompaniyalarning huquqiy maqomi to'liq belgilanmagan; «nobank kredit tashkiloti» instituti zaif rivojlangan; ko'chmas mulk va avtotransport garovini notarial rasmiylashtirish talabi onlayn kreditlash jarayonini qiyinlashtiradi.

Texnologik to'siqlar: banklarning legacy IT tizimlari zamonaviy API arxitekturasini bilan muvofiqlik muammosini keltirib chiqaradi; ma'lumotlarni xavfsiz uzatish va autentifikatsiya standartlarining yetarlicha uyg'unlashmaganligi; bank xodimlarining API texnologiyalari va raqamli transformatsiya bo'yicha malakasi past.

Bozor to'siqlari: davlat banklari (Xalq banki, Ipoteka-bank va b.) umumiy bank aktivlarining 50 foizdan ortig'ini nazorat qilishi raqobat muhitini cheklaydi; fintech kompaniyalar uchun boshlang'ich kapital talablari yuqori; mijozlarning yangi raqamli xizmatlarga ishonchi yetarlicha shakllanmagan.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O'zbekiston bank tizimida ochiq banking va fintech integratsiyasining rivojlanish salohiyati yuqori, biroq uni ro'yobga chiqarish uchun bir vaqtning o'zida texnologik, regulativ va institutsional chora-tadbirlarni qo'llash zarur. Hozirgi holat «texnik raqamlashtirish» bosqichiga mos kelsa-da, strategik platformali integratsiya bosqichiga o'tish uchun tizimli yondashuv talab etiladi.

2. Regulativ yo'nalishda: fintech kompaniyalarning huquqiy maqomini «nobank kredit tashkiloti» sifatida rasmiylashtirish; O'zbekiston sharoitida PSD2 analogini – milliy ochiq banking standartini ishlab chiqish; ko'chmas mulk garovini onlayn rasmiylashtirish imkonini beruvchi qonunchilik o'zgarishlarini kiritish tavsiya etiladi.

3. Texnologik yo'nalishda: Markaziy bank tomonidan boshqariladigan milliy ochiq API platformasini yaratish; banklararo o'zaro operativlik (interoperability) standartlarini joriy etish; bank tizimida «sandbox» regulativ muhitini kengaytirish – fintech ilovalarni bozorga chiqarishdan oldin sinovdan o'tkazish imkonini beruvchi mexanizmni rivojlantirish zarurligi ko'rsatildi.

4. Bozor yo'nalishda: davlat banklariga ochiq API joriy etish bo'yicha majburiy maqsadli ko'rsatkichlar belgilash; bank-fintech hamkorligini rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari va davlat kafolatlari mexanizmini ishlab chiqish; fintech akseleratorlar va inkubatorlarni moliyalashtirish orqali startap ekotizimini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

5. Tadqiqot ko'rsatdiki, ochiq banking va fintech integratsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirgan mamlakatlarda bank sektori GDP ga nisbati o'rtacha 12-18 foizga oshgan, moliyaviy inkluzivlik darajasi 25-30 foizga ko'tarilgan va yangi moliyaviy xizmatlar bozori 3-5 yil ichida 2-3 barobarga kengaygan. O'zbekiston ushbu tajribadan to'liq foydalanib, mavjud to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etgan holda moliya bozorining yangi bosqichiga chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. European Banking Authority. Guidelines on the conditions to be met to benefit from an exemption from contingency measures under Article 33(6) of Regulation (EU) 2018/389 (PSD2). – EBA/GL/2018/07. – 2018.
2. Cociug V., Postolache V. The Trends in the Evolution of Digital Business Models // Journal of Financial Studies. – 2022. – Vol. 7. – No. 13. – P. 42–60.
3. Farnè M., Vouldis A. Business Models of the Banks in the Euro Area // Working Paper Series. – European Central Bank. – 2017. – No. 2070.
4. Zetzsche D.A., Buckley R.P., Arner D.W., Barberis J. The Future of Finance: Fintech, TechFin and RegTech // Journal of Banking Regulation. – 2023. – Vol. 24. – P. 1–18.
5. Skinner C. Digital Human: The Fourth Revolution of Humanity Includes Everyone. – Marshall Cavendish Business, 2018. – 278 p.
6. Aliyev X.R. O'zbekistonda bank ekotizimlarini rivojlantirish: platformaviy yondashuv // Iqtisodiy tahlil. – 2025. – №1. – B. 33–47.
7. Shoymardonov O. O'zbekiston tijorat banklarida biznes ekotizimini shakllantirish // Moliya va bank ishi. – 2024. – №2. – B. 12–26.
8. Omarini A. Bank Business Models: How to Balance Digital Transformation and EU Regulation // European Journal of Finance. – 2023. – Vol. 29. – No. 3. – P. 241–258.
9. Stepanova S.V. Changes in Banking Business Models Driven by Technological Innovations // Finance and Credit. – 2022. – Vol. 28. – No. 4. – P. 890–912.